



IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TAHDIDLAR

Israilov Bakhodir G'anisher o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning turli shakllari, ularning iqtisodiy rivojlanish va davlatlar barqarorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, global miqyosdagi iqtisodiy xavflar, texnologik o'zgarishlar va O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligiga alohida e'tibor qaratiladi. Statistik ma'lumotlar va tahlillar orqali mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash uchun mavjud strategik yondashuvlar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiy tahdidlar, O'zbekiston, global iqtisodiyot, raqamli xavfsizlik, iqtisodiy rivojlanish.

Iqtisodiy xavfsizlik davlatning iqtisodiy tizimini barqaror va mustahkam saqlash qobiliyati bilan chambarchas bog'liq. O'tgan yillarda global iqtisodiy inqirozlar, pandemiya va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi iqtisodiy xavfsizlik tushunchasini yangi darajaga olib chiqdi. O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizligi ham ichki va tashqi tahdidlar ta'siriga tushadi. Ushbu tahdidlar xalqaro savdo munosabatlari, raqamli xavflar va tabiiy resurslar uchun global kurashdan iboratdir.

Global iqtisodiy tahdidlar: Jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan global inqirozlar va pandemiyalar davlatlar uchun katta iqtisodiy tahdid manbai hisoblanadi. Xalqaro savdo to'siqlari, proteksionizm siyosati, iqtisodiy raqobat va tabiiy resurslar uchun kurash mamlakatlarning iqtisodiy xavfsizligini buzadi.

Masalan, Jahon bankining hisobotlariga ko'ra, 2020 yilda COVID-19 pandemiyasi global YaIM 4,3% ga qisqarishiga olib keldi, bu esa davlatlar iqtisodiy barqarorligiga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Pandemiya sharoitida O'zbekiston ham qiyinchiliklarga duch kelib, iqtisodiy tiklanish uchun yangi strategiyalarni ishlab chiqishga majbur bo'ldi.

Pandemiya davrida O'zbekistonda juda katta iqtisodiy inqiroz kuzatildi. Chunki bunday holatga O'zbekiston tayyor emas edi. Aynan yangi ishlab chiqilgan strategiyalar tufayli O'zbekiston iqtisodiyot qadamma-qadam tiklandi, va hozir ham tiklanmoqda. Respublikamizning iqtisodiyoti bir qismi turizmga bog'liq. Pandemiya davrida turistlar oqimi to'xtatildi, va aynan turizm tomonlama O'zbekistonda iqtisodiy inqirozga olib keldi. Yana bir tahtidlardan biri bu sog'liqni saqlash tizimi, chunki aynan bu sog'liqni saqlash tizimiga qo'shimcha yuk tushdi, bu esa resurslar va investitsiyalarni talab qildi. Yangi asbob uskunalar, yangi shifoxonalar va shunga o'xshash yangilanishlar kerak bo'ldi. Bunday kuchli zarbaga O'zbekiston iqtisodiyoti tayyor emas edi deb hisoblayman. Birgina vaksinaga davlatimiz katta pul mablag'lari sarflashdilar.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ko'rsatkich	2019-yil	2020-yil (pandemiya)	2021-yil
YaIM o'sish sur'ati (%)	5.6%	1.6%	7.4%
Inflatsiya darajasi (%)	14.5%	11%	10%
Ishsizlik darajasi (%)	9.4%	11.1%	10.5%
Eksport hajmi (mlrd AQSh dollari)	14.4	13.4	16.6
Import hajmi (mlrd AQSh dollari)	24.3	19.4	25.4
Davlat qarzi YaIMga nisbatan (%)	29.2	34.9	35.1
Oltin-valyuta zaxiralari (mlrd AQSh dollari)	2.5%	3%	4%

Import va eksport, yani savdo sotiqa ham bu holat kuzatildi. Chet el davlatlaridan import va chet el davlatlari mahsulotlarimiz eksporti yuqoldi, buning oqibatida O'zbekistonning asosiy kuchi bo'lib turgan iqtisodiyotiga kuchli zarba bo'ldi deb aytib bilamiz.

O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar: O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizligi asosan qishloq xo'jaligi va energetika sektoriga bo'lgan qaramlik, import va eksport muvozanati, shuningdek, raqamli iqtisodiyotning sekin rivojlanishi bilan bog'liqdir. Davlat iqtisodiyotining o'sish sur'atlari barqaror bo'lsa-da, tashqi iqtisodiy muhit va ichki islohotlar ta'sirida iqtisodiy tahdidlar kuchayishi mumkin.

2023 yilgi O'zbekiston Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat YaIM o'sish sur'ati 5,7% ni tashkil etdi. Biroq, energetika resurslariga bo'lgan yuqori qaramlik va xalqaro bozorlardagi o'zgarishlar iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat o'z iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish orqali ushbu tahdidlarni kamaytirishga harakat qilmoqda.

O'zbekiston energiya resurslariga, xususan, tabiiy gaz va neftga bog'liq. Energiya narxlarining global bozoridagi o'zgarishlar va raqobat iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Energiya resurslari narxining pasayishi davlat budjetiga zarar yetkazadi. Ya'ni energiya resurlarning davlatimiz narxlarini tushurish mumkin, ammo import qilib olib kelinayotgan tabiiy gazlar narxлари jahon bozorida narxi oshmoqda va bu O'zbekiston iqtisodiyotiga ham salbiy ta'sirini o'tkazmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bilan iqtisodiy xavfsizlikka yangi tahdidlar paydo bo'lmoqda. Kiberxavfsizlik muammosi, texnologik innovatsiyalarning noto'g'ri qo'llanilishi va davlatlar o'rtasidagi raqamli tafovut iqtisodiy xavfsizlikni zaiflashtiradi.

O'zbekiston 2021 yildan beri raqamli iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirmoqda. Shunga qaramay, mamlakatning kiberxavfsizlik infratuzilmasi hali ham rivojlanish bosqichida. 2022 yilgi Axborot texnologiyalari vazirligi hisobotida kiberxavfsizlik tahdidlari va ularni bartaraf etish choralariga e'tibor qaratilgan bo'lsa ham, ko'plab zaif tomonlar





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

saqlanib qolmoqda. Kiberhujumlarning o'sib borishi bu mamlakatimiz uchun zararga ishlaydi. Chunki bu kabi tahdidlar eng rivojlangan mamlakatlarda ham mavjud.

Raqamli iqtisodiyotning o'sishi ko'plab sohalarda, jumladan, savdo, moliya, ta'lim va sog'liqni saqlashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Internet orqali xizmatlar ko'rsatish, elektron tijorat va raqamli to'lov tizimlari iqtisodiyotni yanada samarali va qulay qilishga yordam beradi. Ta'lim tizimida yo'l qo'yilgan raqamli platformalar ham yangi imkoniyatlar bemoqda.

Hozirgi kunda eng rivojlanayotgan va rivojlanishda to'xtamayotgan bu elektron xizmatlar. Bu xizmatlar bugungi kunda barcha narsalarni o'zgartirmoqda. Oddiy misol tariqasi ko'rsatsak, bu raqamli to'lovlar bu juda katta imkoniyatlardan biri, oldinlari bankda bir necha kunlar kutib qilgan to'lovlaringizni yoki o'tkazmalariningizni. Hozirgi kunga kelib bir ilova orqali bir necha soniyada amalga oshirishingiz mumkin. Bu raqamlashtirish mamlakatimiz uchun juda katta yangiliklardan biri hisoblaymiz, ammo rivojlanayotgan joylarda tahdidsiz bo'lmaydi. Moliyaviy xavfsizlik vatandoshlarimiz yaxshi bilmagani uchun hozirda ularning plastik kartalarida hujumlar muntajam bo'lmoqda.



Xulosa: Iqtisodiy xavfsizlik davlatlar uchun strategik ahamiyatga ega. O'zbekiston uchun ushbu tahdidlar asosan tashqi iqtisodiy munosabatlar, raqamli iqtisodiyotdagi yetishmovchiliklar va ichki resurslardan foydalanish bilan bog'liqdir. Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun diversifikatsiyalangan iqtisodiyotni rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarur.

O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash uchun tashqi bozorlarga mustaqil kirish imkoniyatlarini kengaytirish, texnologik taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash va kiberxavfsizlikni kuchaytirish eng asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jahon banki (2021). COVID-19 va global iqtisodiyotga ta'sir.
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi (2023). O'zbekistonning iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha hisobot.
3. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (2022). Kiberxavfsizlik va raqamli iqtisodiyot bo'yicha yillik hisobot.

